

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**N.A. Abduvaliyeva**

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism) .....	654
<b>A.A. Nishonov</b>	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi .....	664
<b>A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov</b>	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda .....	673
<b>A.A. Nishonov</b>	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi .....	677
<b>R.X. Akbarov</b>	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	681
<b>R.X. Akbarov</b>	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	685
<b>S.V. Yo'ldoshev</b>	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari .....	691
<b>A.M. Maximov</b>	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri .....	695
<b>A.M. Maximov</b>	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda? .....	698

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness .....	701
--	-----

**H.K. Sabirov**

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова .....	706
--	-----

**A.P. Kosimov**

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры .....	710
--	-----

**H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov**

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari .....	715
--	-----

**H.M. Karimova**

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе .....	718
--	-----

**Y.I. Nishanov**

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni .....	722
--	-----

**I.N. Doronina**

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе» .....	726
--	-----

**E.F. Gizduulin**

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике .....	729
---	-----

**X. Sharifiddinov**

Zamon qiyofalangan tarixiy roman .....	732
--	-----

**E.Ibragimova, N. Sharafutdinova**

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar .....	735
---	-----

**G.V. Abdullayeva**

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi .....	738
---	-----

**S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova**

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari .....	745
--	-----

**X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova**

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi .....	749
---	-----

**X.J. Jamolova**

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari .....	752
---	-----

**M.M. Xamidov**

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir .....	755
---	-----

**R.M. Umurzakov**

Bola obrazining nazariy muammolari .....	761
--	-----

**J.B. Sayidolimov**

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar .....	765
--	-----



**O'ZBEK VA JAHON FOLKLORI NAMUNALARIDA UCHLIK VA BEHLIK  
TIMSOLLARINING POETIK KOMBINATSİYALARI**

**ПОЭТИЧЕСКИЕ СОЧЕТЕНИЯ ТРИАДЫ И ПЯТЕРИЦЫ СИМВОЛОВ НА ПРИМЕРАХ  
УЗБЕКСКОГО И МИРОВОГО ФОЛЬКЛОРА**

**POETIC COMBINATIONS OF TRINITY AND FIVE SYMBOLS IN EXAMPLES OF UZBEK  
AND WORLD FOLKLORE**

**Xodjayev Sidiq Ahmedovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'onan davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Turg'unova Cho'Ipionoy Ilhom qizi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'onan davlat universiteti, talaba

**Annotatsiya**

*Ma'lumki, biz yashab turgan olam raqamlarning bir-biriga zarjirsimon bog'lanishidan tuzilgan va biz raqamlarsiz bu olamni tasavvur eta olmaymiz. Ushbu kichik tadqiqotda uch va besh raqamining fanga ma'lum bo'lmagan nozik ma'nio qirralarini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada uchlik va beshlik timsollarining turli kombinatsiyalari ma'lum bir xalq turmushni va xususiyatlarini aks ettilishi, muayyan raqamning ilmiy istilohi, g'oyavli xususiyatlari, badiiy jihatlari, kelib chiqish tarixi, evolyutsiyasi, funksional tomontari aniqlangan. O'zbek va jahon folklori namunalarda uchraydigan uchlik va beshlik obrazlar tahliliga ham munosabat bildirilgan.*

**Аннотация**

Известно, что мир, в котором мы живем, состоит из цепочки чисел, и мы не можем представить этот мир без чисел. В этом небольшом исследовании особое внимание уделено раскрытию тонких аспектов значения числа три и пять, неизвестных науке. В статье различные сочетания символов триады и пятерицы отражают жизнь и особенности определенного народа, определяются научный термин, существенные особенности, художественные аспекты, история происхождения, эволюция, функциональные аспекты числа. Также выражен анализ триады и пятерицы образов, встречающихся в примерах узбекского и мирового фольклора.

**Abstract**

*It is known that the world we live in is made up of a chain of numbers, and we cannot imagine this world without numbers. In this small study, special attention is paid to revealing the subtle aspects of the meaning of the numbers three and five, which are not known to science. In the article, various combinations of symbols of threes and fives reflect the life and characteristics of a certain nation, the scientific term, significant features, artistic aspects, history of origin, evolution, and functional aspects of the number are defined. The analysis of the triple and pentad images found in the examples of Uzbek and world folklore is also expressed.*

**Kalit so'zlar:** uchlik, beshlik, timsol, folklor, qahramon, obraz, ertak, syujet.

**Ключевые слова:** триады, пятерицы, символ, фольклор, герой, образ, сказка, сюжет.

**Key words:** trinity, five, symbol, folklore, hero, image, fairy tale, plot.

**KIRISH**

Oddiy matematik belgi sifatida talqin etiluvchi raqamlar aslida butun bir xalqning madaniyati, milliy mentaliteti, urf-odati hamda kundalik turmush tarzini ifodalab beradigan bebafo xazinadir. Ularda ko'plab sir-sinoatlar saqlangan bo'lib, ular har millat va xalqning milliy ma'naviyatini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida, shuningdek, Sharq adabiyotida ham raqamlar bilan bog'liq, xususan, beshlik timsoliga mansub asarlarga atroficha munosabat bildirilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida ham raqamli timsollar mohiyati asos qilib olingan maqol va topishmoqlar, ertak va afsona,

## ADABIYOTSHUNOSLIK

rivoyatlar birmuncha. Ular boshqa, ya'ni raqamli obrazlar uchramaydigan asarlardan o'zining falsafiy-badiiy ma'no ifoda etishi, kitobxon shuuriga sezilarli darajada ta'sir etishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun raqamli timsollarga asoslangan asarlar genezisi, taraqqiyotini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi uchun ham muhim, tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalar sirasidan hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'z san'ati, xususan, folklor namunalari muayyan xalqning ko'p asrlik ijtimoiy hayoti ko'zgusidir. Folklor namunalari orqali bizgacha yetib kelgan beshlik timsoli bilan bog'liq tushunchalar milliy, madaniy, umumbashariy g'oyalarning badiiy ifodasida katta o'rinn tutadi.

Uchlikka asoslangan timsollar genezisi o'ta qadimiy bo'lib, ular mifik tushunchalar haqida tasavvurlarni aks ettiradi. Dunyoning yaralishi, ibridoij jamoaning shakllanishi, inson tafakkuridagi tadrijiylik singari masalalarning aksariyati uchlik timsoli bilan asoslanadi.

Inson olam haqidagi ibridoij tasavvurlardan o'zligini anglashgacha bo'lgan jarayonlarda uchlikka asoslangan ramz va timsollarga qayta-qayta murojaat qilgan. Oilaviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar asosidagi uchliklarni ham mifologik tasavvurlar fonida ko'plab kuzatishimiz mumkin.

Sharq folklorida "besh" raqami ko'p qo'llanadi. Markaziy Osiyoda yashovchi mo'g'ul va buryat xalqlari dostonlarida "besh" raqami haqidagi qadimiy qarashlar saqlanib qolgan. Mo'g'ul miflarida hikoya qilinishicha, yerda odam bolasi yashamagan qadimgi zamonlarda suv ichidan ulkan toshbaqa suzib chiqqan emish. Tangrilari bu jonivorni o'ldirib, qornini yorsalar uning tanasidan besh xil rang, besh tomon, dastlabki besh xil o'simlik paydo bo'lgan emish. Mo'g'ullar dunyoning besh tomoni mavjud deb o'ylaganlar. Ular quyidagilar: shimol, janub, g'arb, sharq va markaz. Shuning uchun ularning marosimlarida besh xil, ya'ni oq, qizil, yashil (yoki ko'k), sariq va qora ranglariga alohida ahamiyat beriladi.[1.12]

Darhaqiqat, qadimdan ushbu raqam muqaddas va sehrli hisoblanib, xavf-xatar va ishonchszilik ramzini ifodalagan. Ibtidoij jamoadan hozirgi kungacha ham turli xil marosimlarda "besh" timsolidan keng foydalanamiz.

Qadimiy budda yozma yodgorliklarida ham o'ziga xos beshlik an'anasi mavjudligini L. Myall ham qayd qilgan edi.[2.93]

Jangchilar besh o'q ko'tarib yurishi Sharq xalqlari og'zaki ijodida, tasviriy san'atida qadimdan rasm bo'lgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, qadimgi Eron va skif janchilari beshtadan kamon o'qi bilan qurollanganlar. Qalmiq xalqining buyuk eposi "Jangar" da tasvirlanishicha, lochinko'z merganlardan biri Xavton beshta kamon o'qini osib olgan. Qadimgi hind eposi "Maxabxarata" qahramonlari "besh pandav" larning har birida beshtadan kamon o'qi bo'lganligi ma'lum. Qadimgi odamlar o'ldirilgan dushmanning o'ng qo'lidan besh barmog'ining kuch-qudrati g'olibga o'tadi deb ishonishgan. Shu bois jangchilar o'qdonida doim beshtadan kamon o'qi qo'yilgan. Demak, Sharq folkloridagi besh o'q botirlik, mardlik, g'oliblik ramzidir. Bugungi kunda yoshlar nutqida iste'molda bo'lgan ichiga besh o'q joylanishi mumkin bo'lgan miltiq – "beshotar" termini ham yuqoridagi fikrlarga nisbat berilgan tarzda kelib chiqqani ham ehtimoldan holi emas.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Ertak – insoniyat zakovatining ajoyib mahsuli bo'lib, u insonni ulug'laydi, unga quvonch bag'ishlaydi, kelajakka umid uyg'otadi"[3.10].

"Ertak – sehrli, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi og'zaki hikoya bo'lib, unda hayotda ro'y berishi mumkin bo'limgan voqeа-hodisalar tasvirlanishi mumkin. Bu ma'lum ma'noda ertakni tushga yaqinlashtirsa, uning maqsadli bo'lishi, syujetining ongli boshqarilishi hamda niyatlarining ezguligi bilan undan farqlanadi. Ertakda ,albatta, fantastika bo'lishi shart. Unda jonivorlar, qushlar, predmetlar tilga kiradi va qahramonga yordam ko'rsatadi. Bir qarashda oddiy bo'lib ko'ringan narsalar, misol uchun, Aloviddinning eski chirog'i yoki kampirning uch dona soch tolasi sehrli bo'lib chiqishi, gilam yoki ot uchishi, cho'rtanbaliq yoki maymun gapirishi mumkin. Fantastikasiz ertak bo'lmaydi. Ko'pincha ularda pand-nasihat yetakchi o'rinda bo'lib, tinglovchilar o'zları uchun undan hayotiy saboq oladilar"[4.29].

Jahon xalqlari og'zaki ijodi, xususan, ertaklar va dostonlarda uchlik timsoliga oid ko'rinishlarni mushtarak va o'xshash holatda uchratish mumkin. Masalan, ko'plab sharq-u g'arb xalqlarining ertaklari: "Жил был царь (мужик, старик) и было у него три сына или три дочери", "Бореканда ўо'қ екан, бир подшо (dehqон, hunarmand, chol) bo'lib, uning uch о'гли (uch qizi)

## ADABIYOTSHUNOSLIK

bo'lgan ekan", an'anaviy, bir xil qolipdagi kirishlar bilan boshlanadi. Ertak qahramonlarining boshidan kechirgan ko'plab sinovlari, sarguzashtlari ham dunyoning bir chetidagi podsholikda, davlatda yoki yurtda sodir bo'ladi. Ertak qahramonlari uch yo'ldan birini yoki toshdag'i: "Chapga borsang, boshing ketadi. O'ngga yursang, hayotingdan ajraysan. To'g'riga ketsang, umuman qaytmaysan" kabi yozuvlardan birini tanlashi kerak bo'ladi. Ertak qahramonlari o'z maqsadiga yetishdan oldin turli sinovlardan o'tadilar. Bu sinovlar ham odatda uchta bo'ladi.

Jahon xalqlari folklorida, masalan, ruslarning «Tri bogatirya», o'zbeklarning «Uch og'ayni botirlar» ertaklari milliylik va mentalitetdan tashqari geografik joylashuvini ham anglatgan. Rus bilina qahramonlari – Ilya Muromes, Dobrinya Nikitich va Alyosha Popovichlar ruslarning turmush tarzi, qadimdan shakllangan urf-odatlariiga ko'ra, asosiy merosxo'r va uning atrofidagi voqeahodisalar bayoniga yo'naltiriladi. Shu sababli Ilya Muromes eng kuchli, eng aqllisi bo'lgan va o'zidan kichiklarni boshqarib, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatgan. O'zbek xalqining an'analariga ko'ra, uyda ota-onasi bilan kenja o'g'il qoladi. Uni ota-onasi bilan birga aka-opalar ham tarbiyalagani uchun u aqli, ishbilarmon, omadli, jasur bo'ladi, eng asosiy va xavfli vazifalarni Kenja botir ado etadi hamda akalarini ham jasoratga yetaklaydi, xalqqa azob berayotgan 40 qaroqchini o'ldiradi, o'zi malikaga uylanganidek, akalarini ham aslzoda qizlarga uylanishi uchun zamin hozirlaydi va ularning baxtli yashashlariga yordam beradi.

Shu tariqa uchlik inson qalbini, hissiyotlarini falsafiy, hissiy talqin qilish vositasiga aylanib, badiiy adabiyotga kirib keldi. (Keyin u yanada rivojlanib oilaviy uchlik – ota – ona – farzand uchligi yuzaga keldi). Insonlar o'zi yaratgan asarlarida tuyg'ular asosidagi uchlikni badiiy ifodalay boshladи.

Turli xalqlarga mansub syujetlarning o'ta o'xshash va mushtarakligini biz ertaklar misolida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodida Olmon xalqi bolalar yozuvchilari bo'lgan aka-uka Grimmlar ijodida uchraydigan va ko'p xalqlarning sevimli ertaklaridan biriga aylangan "Botir tikuvchi" ertagi syujetiga to'liq mos keladigan "Besh jonlini bejon qilgan Bahodir" ertagini uchratishimiz mumkin.

"Aka-uka Grimmlarning qaysi asarini olmang, hammasida ham eng avvalo mehnatkashlik, mehnatga muhabbat g'oyasi ilgari suriladi. Ikkinchidan, har qanday holda ham, har qanday mushkul ish boshiga tushganda ham o'sha qahramon chora qidiradi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik yo'lidan boradi va ofatdan qutiladi" [5.52].

Ertaklarning syujeti ko'pchilikka yaxshi tanish. Qahramonlar nogahon beshta pashshani bir urishda nobud qilish bilan o'ziga o'zi botir, dovyuraklik tamg'asi shiorini yozib yelkasiga osib olishadi. Ular o'z baxtini, taqdirini sinab ko'rish, peshonasida borini qo'lga kiritish maqsadida safarga otlanishadi.

Gans ham, Bahodir ham tadbirkor, epchil - chaqqon. Yotib qolguncha otib qol qabilida dovyuraklik bilan ish ko'rishi ularga katta shuhrat keltiradi. Puxta- pishiqligi bilan g'orda behisob devlar ustidan g'olib chiqishadi. Dev ko'tarib olgan daraxt shoxlari ustida qush kabi o'tirishi, devning savollariga qo'rqlaydi, ustalik bilan javob berishi asrlar osha kitobxonni hayratga solib kelmoqda.

Qahramonlar uchun og'ir sinov o'rmondag'i ikki pahlavon bilan olishuv bo'ldi. Podshatomonidan ikki pahlavonni mag'lub qilish vazifasini olib, tavakkal qilib yo'lga tushishadi. Pahlavonlarning ustlariiga tosh tashlash bilan ular o'tasida nifoq chiqarishadi. Ikki jangchi bir - birini tosh bilan urib nobud qiladi.

O'rmondag'i shoxdor maxluqni mag'lub qilgan ertaklardagi kabi tadbirkor yigitlar bilimdonlik, o'ylab ish ko'rishi bilan shoxdor maxluq ustidan g'olib chiqadi.

Gans va Bahodirning yumshoq so'zligi, muloyimlik bilan ish ko'rishi yosh kitobxonida yaxshi taassurot qoldiradi. Ularda ham xuddi o'sha botir tikuvchi kabi yetuk inson bo'lishga, botir, pahlavon bo'lishga havas uyg'otadi.

"Beshta pashsha" mohiyati asosiga qurilgan ushbu ertaklar sarlavhasiga ham e'tibor berish darkor. Mualliflar bejizga sarlavhaga "Botir tikuvchi" va "Besh jonlini bejon qilgan bahodir" degan nom tanlashmaydi. Bunda ham ramziylik bor. Xalqimiz orasida keng qo'llaniladigan "Ismi – jismiga mos" iborasiga monand tarzda qahramonlar o'z ismlariga mos ravishda harakat qilashadi va zimmalariga yuklangan barcha qiyinchiliklarni g'oliblik bilan uddalashadi.

Yuqorida misollardan ham ko'rishimiz mumkinki, "besh" raqami o'zbek va jahon folklorida "sehri" raqamdir. Chunki qahramonlarning dastlabki qahramonliklari beshta pashshani mag'lub

qilganligidadir. Agar ularning soni boshqacha bo'lganda, ular barcha to'siqlarni muvaffaqiyat bilan yengib o'tmasliklari ham mumkin edi.

"Uch" raqami mohiyati ham shunday. Agar yuqorida tahlil qilingan ertak qahramonlari soni aynan uchta bo'lmaganda, ular ham doimo g'alaba qozonishmagan bo'lishi mumkin edi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa namunalarida ham ushbu raqamlarning sehrga boy ekanligini va asar qaharmonlariga doimo baxt olib kelishini guvohi bo'lamiz.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, biz yuqorida tahlilga tortgan uchlik va beshlikka asoslangan ramzlar, timsollar, ishoralar muayyan xalqning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotining turli bosqichlarini badiiy-estetik jahatdan ta'sirli ravishda ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ularda olg'a surilgan umumbashariy g'oyalar har bir davr uchun o'zining axloqiy-ta'limiyligi ta'sirini ko'rsataveradi. Biz so'z yuritayotgan uchlik va beshlik asosidagi badiiy lavhalar maishiy turmush, ijtimoiy jarayon, falsafiy tafakkur taraqqiyotini ko'z oldimizda yaqqol gavdalantiradi. Biz aynan folklor namunalari orqali ajodolarimizning oilaviy-maishiy turmush tarziga qo'ygan talablari, avlodlarni tarbiyalash mezonlari, jamiyatni ravnaq toptirish yuzasidan mushohadalari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сэндэнжавни Д. Образы монгольской мифологии и литературная традиция АКД. М., 1972. С. 12.
2. Мялль Л. Число "Пять" в буддизме//Сборник статей по вторичным моделирующим системам. Тарту. 1973. С. 93
3. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сехрли» рақамлар. – Тошкент: «Фан» нашириёти, 1991.
4. Хо'jayev S. Uchlik timsolining ijtimoiy-falsafiy va badiiy tafqini. Fil.fan.nomz.diss.avtoref.–Farg'ona, 2022.–133 bet.
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. B. 215.
6. Internet manbalari.